Mina — Fikrlar va Qarashlar Kitobi

Kelajak avlod uchun yozilgan fikrlar, tushunchalar va shaxsiyat tahlillari.

1. Ilmiy va Hayotiy Fikrlar

Insonlarning hayoti muqarrar o'lim bilan yakun topadi, ammo ular pul topish, o'qish, izlanish bilan vaqtlarini sarflashadi. Bu ular hayotdan ma'no qidirgani va o'zidan keyin nimadir qoldirishni istaganidan dalolat beradi. Har bir odamdan ilmiy kashfiyotlar, izlanishlar yoki hayotiy saboqlar qoladi. Mendan esa kelajak uchun ilmiy va hayotiy fikrlarim, izohlarim va qarashlarim qoladi.

2. Haqiqat, Adolat va Yaxshilik-Yomonlik

Hech kim butunlay yaxshi emas, yaxshilik va yomonlik huddi tanganing ikki tomoniga o'xshaydi. Har bir inson ichida bir maxluq yashaydi — uning ikkinchi shaxsiyati. Kimdir uni erta ozod qiladi, kimdir esa ichida saqlaydi. Yaxshi insonlar ham ba'zida yanglish qarorlar bilan begunohlarni qurbon qilishlari mumkin. Ammo doim uchinchi yo'l bo'ladi, shunchaki uni izlash kerak. Qo'rquv aqlni ishdan chiqaradi, lekin aql bilan yondashilganda har qanday muammoning yechimi topiladi. Insonlar doim haqiqat va adolat uchun kurashishlari lozim, begunohlarni qurbon qilmasdan boshqa yo'llarni izlashlari kerak.

3. Shaxsiyat Tahlili — 15 Savol va Javob

Mening Shaxsiyatim — 15 savol va javob

1-savol: Tasavvur qil: tun. Sen yolg‘iz, notanish joyda qolasan — telefon o‘chgan, yo‘l noma’lum. Hech kimdan yordam so‘ray olmaysan. Asta-sekin yurib ketishing kerak. Qanday yo‘nalishni tanlaysan? Qanday fikrlar yoki hissiyotlar birinchi bo‘lib paydo bo‘ladi? Javob: Men shunchaki to'g'riga yuraman, xotirjamlik bilan va hech qanday qo'rquv va hayajonlarsiz. Yo'lnining to'g'ri yoki noto'g'riligi muxim emas, shunchaki yodda tutish kerak bo'lgan narsa harakat qilish. Chunki qancha yurish davomida manzilgacha bo'lgan mashaqqatni his qilasan balki noto'g'ri manzilga borib qolarman lekin bu xato men uchun juda katta foyda beradi. Harakat bilan xato qilish bazida hech nima qilmaslikdan yaxshi

2-savol: Aytchi, bolaligingda seni eng ko‘p chalkashtirgan savol yoki hodisa nima edi? O‘sha paytda uni tushunmagan bo‘lsang-da, hozir unga qanday qaraysan? Javob:Bolaligimda meni doim qiyin vaziyatga solib qo'yadigan hodisa bu ota onamning janjallari edi, ular doim o'zlarini oqlab meni to'g'ri tanlov qilishimda chalkashtirib yuborardi. Bu vaziyatta to'g'ri o'ylay olmasdim, buni hatto tasvirlash ham murakkab. O'sha paytta ular nimaga erishmoqchi ekanliklarini aniq tushunmasdim lekin hozir tushungandekman, o'ylashimcha bu hoxish, energiya va ustunlikka o'chlik.Hozir o'sha vaziyatga bo'lgan qarashim juda oddiy, ya'ni o'sha payttagidan ancha farq qiladi. Endi hammasi ta'biy va hayotiydek, balki bu ko'nikishdir yoki xulosa ochig'i bilmadim. Shuni bilamanki endi bu vaziyatni oson qabul qilaman va yechim topaman!

3-savol: Tasavvur qil: eshik bor, u orqasida sen hech qachon ko‘rmagan, ammo yuraging sezgan haqiqat yashiringan. Bu eshikni ochishga imkoning bo‘lsa, uni ochasanmi? Yoki ochmaslikni tanlaysanmi? Nega? Javob:Agar yuragimni tinglaydigan bo'lsam ha! Eshikni ochaman va u bilan yuzlashaman. Chunki bilaman agar uni ochmasam bundan pushaymon bo'laman, men doim o'zim haqimdagi haqiqatlarni tushunishga va ularni ko'ra olishga harakat qilardim. Men ko'rmagan ammo men ich-ichimdan his qilgan o'sha haqiqatlar haqida o'ylay boshlasam hayollar girdobi meni o'z domiga tortib ketadi, aslida bu juda chuqur hissiy ong hodisasi. Mening nazarimda bu alohida bir dunyo. Men bu eshikni ochish orqali o'zligimni anglashim mumkin hatto o'zimga bo'lgan baxoyim ham o'zgaradi, buning g'aroyibligi shundaki bu mening yangi va ochilmagan qirram! Bu yangi shaxsiyat va yangi inson degani

4-savol: Aytchi, seni eng ko‘p ilhomlantirgan yoki butun fikrlash tarzinga ta’sir qilgan bir obraz, odam yoki hatto qahramon kim bo‘lgan? Nima uchun aynan u? Qanday fazilatlari sendagi nimanidir uyg‘otgan? Javob:Janubiy koreyaning bir k-dramasi bor, asl nomi "Mening ismim,, undagi bosh qaxramonni birinchi martta ko'rganimda bazi narsalar ichimdan o'tti, bu xasad hisdiga yaqinroq. Chunki u men hoxlagan personal va men hoxlagan rolni ijro etti, shu darajada mukammal ijro ettiki bu mening hayotimga ta'sir qila boshladi. Bu personaj ma'lum bir tanlovdan oldin sochi uzun qiz bo'lgan keyin esa uni kesib tashlagan, shu paytta sochi aynan unga uyg'unlasgandek edi. Shundan so'ng ichimdagi qandaydir kuch meni sochlarimni kesishga majbur qildi va men buni qildim. Balki maqsadim unda bo'lgan ammo menda bo'lmagan jixatlardir, bundagi asosiy jixat bu "qatiyat,,. Bu personajni yoqtirib qolganimning yana bir sababi bu o'xshashlik edi, tunda yonuvchi rangli chiroqlar, quloqchinlar, jiddiy yuz ifodasi va jasurlik. Bu juda hayratlanarli lekin undagi hamma narsa menga yoqa boshlagandi masalan: mashina, kiyinish uslubi, soch uslubi, xarakter, yashash uyi...hamma hammasi. Bittagina rol uchun u mening butun bir mamlakattagi yagona ideal ayol bo'ldi uning ro'li tufayli shaxsiy xayotiga ham qiziqib qolgandim. Filmda u qattiyatli va jasur qiz edi, aynan mana shu narsani e'tiborimni tortgan. Qizig'i shundagi filmda u hoxlamagan ammo o'zgargan o'sha hayoti men orzu qilgan hayottir, bu serial bilan bog'liq bolgan hamma narsani kuchli zavq bilan tomosha qilaman va eshtaman. Bu personaj hayotim ujun juda katta ta'sir o'tkazgan.

5-savol: Tasavvur qil: bir kun tongda uyg‘onasanku, birdan hamma senga notanish bo‘lib qolgan. Oila, do‘stlar, uy — hech narsa tanish emas. Nima qilasan? Bu holatda birinchi qiladigan ishing nima bo‘ladi? Qanday hislar ustunlik qiladi? Javob:Hmmm...demak butun bir hayor o'zgarsa, men ozgarishlarni yaxshi ko'radigan va bir xillikni yoqtirmaydigan odamman! Hayotim ham bundan mustano emas, agar mendagi bu omillaravvalgisidan yaxshi tomonga o'zgargan bo'lsa bundan shunchaki hursand bo'laman albatta bu "o'zhayotidan mamnun emas" degan iborani keltirib chiqaradi lekin bu rost. Men ortta qolgan har qanday borliq qa bog'lanib qolmayman shuning uchun shunchaki yashashda davom etaman va yangi imkoniyatlardan foydalanaman deb o'ylayman. Shu paytta hayolimda bu sen uchun bir imkoniyat, u boshqa berilmasligi mumkin degan hayol ustunlik qiladi. Agar bu hayot men orzu qilgan hayot bo'lsa unda men qilishni istagan lekin shunchaki hayolimda yig'ilib qolgan ishlarni amalga oshiraman. 6-savol: Faraz qil: sen muzdek ko‘l ustida yolg‘iz yuribsan. Muz ostida esa biror narsa — noma’lum, ammo sening e’tiboringni tortayotgan... Qandaydir harakat bor. Muz yorilayotganini eshityapsan. Orqaga qochasanmi, oldinga yurishda davom etasanmi, yoki boshqa variantni tanlaysanmi? Javob:U qanchalik e'tiborimni tortsa ham uni nima ekanligini aniqlash uchun muz ostiga tushmagan bo'lardim chunki suzishni bilmayman qolaversa u xavfli bo'lishi mumkin shuning uchun tavakkal qilmayman. Men u yerdan tezlik bilan qochaman va xavfsiz yerga o'taman, boshqa hech qanday variant yo'q. 7-savol: Bir tasavvur: kimdir seni ayblamoqda — hatto sen aybdor bo‘lmasang ham. U odam seni butunlay noto‘g'ri talqin qilayapti. Sen bu vaziyatda qanday javob berasan: tushuntirasanmi, jim turasanmi, isbotlashga harakat qilasanmi yoki boshqa yo‘l tanlaysanmi? Nega aynan shunday? Javob:Bu qanday vaziyat bo'lishiga bog'liq, agar bu men uchun yomon bo'lsa jim turmayman. Bu vaziyatta juda ko'p gapirib o'zimni oqlab o'tirmayman, shunchaki avval undan aytgan gaplari uchun asos talab qilaman keyin esa o'ylab turib uning menga qo'yayotgan ayblovlarini noto'g'ri ekanligini asoslayman albatta amalda so'zda emas. To'g'ri bazida ilojsiz vaziyatta Jim turgan ma'qul lekin vaziyat boshqa bo'lsa bu noto'g'ri! Shunday vaziyat bo'ladiki senga ishonmaydigan odamlar orasiga tushib qolasan unday yerda esa jim bo'lgan ma'qul keyin esa shunchaki u yerdan ketish kerak chunki nima qilsangiz ham befoyda 8-savol: Endi aytchi, agar sening butun his-tuyg'ularing va fikrlaringni boshqalar ko‘ra oladigan ekran bo‘lsa, sen bu ekran yoqilganini istarmiding? Nega ha yoki nega yo‘q? Javob:Albatta yo'q deyman, men uchun himoya va maxfiylik juda muxim narsa! Chunki insonlar doim sendagi his tuyg'ular bilan o'ynashishni yoqtirishadi, agar fikringni bilib qolishsa buni o'zlashtirishadi. Ular juda nozik narsalardir shuning uchun ularni o'zimizda saqlasan yaxshiroq bo'ladi, Biz ularni faqatgina eng yaqin insonimizgagina oshkor qilishimiz mumkin lekin ular ham bir kun kelib band beradi. Shunchaki uni saqlashimiz lozim shunda hech nima yo'qotmaymiz, agar kimdir uddasidan chiqib mening his tuyg'ularim va fikrlarimni ekranga chiqarishni uddalasa men bu ekranni sindirib yo'q qilaman. 9-savol: Bir kun kimdir seni "yomon" deb atadi. Aslida sen hech qanday zarar yetkazmagan bo‘lsang-da, u odam seni shunday ko‘rdi. Sen bunga qanday munosabat bildirasan? Bu senga ta’sir qiladimi? Va eng muhimi — o‘zingni qanday “yaxshi” deb bilasan? Javob:Birinchi navbatta bu uning shaxsiy fikri, balki u bu fikrga kelishi uchun qandaydir turtki bo'lgandir lekin bu mening "yomon" ekanligim haqiqatini bermaydi. Har birimiz kimningdir hayotida "yovuz" personajmiz, agar bir odam bu narsani yuzimga qarab aytsa men jaxil qilmayman, bunga bir nechta sabab bor. U buni orqamdan emas menga qarab aytayapti, buni hurmat qilaman. Ikkinchisi men g'azabga berilmay fikr qilaman " nega u bunday deyapti?" Har narsaning o'z sabablari bo'ladi, albatta nafratning ham! 10-savol: Aytchi, seningcha insonni eng ko‘p yo‘ldan ozdiradigan yoki asl “men”idan uzoqlashtiradigan narsa nima? Va senga bu tahdid qachondir ta’sir ko‘rsatganmi? Javob:Men "ishonchsizlik" yoki "umidsizlik" degan bo'lardim, mana shu ikki narsa insonni turli xil yomon narsalarni qilishga majburlash qudratiga egadir. Qachondir emas doimo! Doim shu ikki narsa bilan kurashib kelganman hatto hozir ham, bu ikki nsa tugayli insonlar bir biridan uzoqlashishadi, so'ng nafratlanishadi keyin esa zararlashadi. Men bu ikkisini his qilganimda yolgizlik ajoyib narsa deb hisoblayman keyin shuning ortidan shaxsiyat buzilishi sodir boladi, zararli odatlar (ichish, chekish, o'g'rilik, zo'ravonlik va.hokazo) Men bu odatlarni qila boshlaganimda allaqachon "men" ni yani o'zligimni yo'qottim, bu senga zavqlidek tuyiladi lekin aslida bu zaxarli. Bu huddi tuzoqqa o'xshaydi, unga bir martta tushdingmi qaytib chiqa olmaysan! 11-savol: Faraz qil: oldingda ikkita tugma bor. Birini bossang — o‘tmishing butunlay o‘chadi. Ikkinchisini bossang — o‘tmishing hech qanday og‘riq qoldirmagan holda, ammo barcha saboqlari saqlangan holdaqalbingda qoladi. Qaysi birini tanlaysan? Va nima uchun? Javob:Chuqur ma'noli savol,

balki ikkinchisini tanlarman. Agar bunday tugmalar haqiqattan majdub bo'lganida ikkinchisi tanlardim yoki ikkisini ham tanlamasdim. Chunki o'tmish og'riqlarini shuncha payt ichimda saqladim, hatto ularni yo'qotish ham qiyin. Butun o'tmishim yo'q bo'lishini istamayman chunki hammasi ham yomon voqealardan iborat emas, aslida o'tmish xatolari bilan yashash unchalik ham qiynoqli emas chunki o'tmishdagi o'sha odam menman, xatolarni qilgan ham menman. Bugunimiz ham kelajagimiz ham bir kun kelib o'tmishga aylanadi, unda ham baribir qandaydir xato qilaman va bu shunda ham men bo'laman. Qilgan xatolarim evaziga olgan mukofotim bu saboqlar, ularga erishish uchun qanchalik tavakkal qilishga to'g'ri keldi. O'tmishni yo'qotish emas yuzlashish kerak lekin ushlab turish ham to'g'ri emas. Xulosa shuki menda hali ikki imkoniyat bor biri bugun bo'lsa ikkinchi bu kelajak 12-savol: Sen biror qadam tashlamoqchi bo‘lib turganingda, eng ko‘p ichingdagi qanday ovoz seni to‘xtatadi? U ovoz nimani aytadi — nimadan ogohlantiradi yoki nimani eslatadi? Javob:Xato qilish qo'rquvi! Doim nimadir qilmoqchi borganimda meni maxima bosadi keyin to'g'ri o'ylay olmayman chunki xato qilishdan qo'rqaman. O'sha paytta ichki qo'rquvim bu xatoni to'g'irlab bo'lmasligini va ortga yo'l yo'qligini aytib ogoxlantiradi, meni to'xtatadi. Men ham to'xtayman bazida esa tavakkal qilishim ham mumkin, lekin ichki qo'rquvim ko'pincha ustun keladi. Menda ichki qo'rquv bor lekin ichki ishonch emas shuning uchun ham qadam bosishdan oldim qo'rqaman lekin o'zimga ishonmayman. Qo'rquvim sababi esa bu qilgan xatoyim mening yaqinlarimga zarar yetkazishi bilan bog'liq, buni faqatgina yo'qotishdan qo'rqadiganlargina tushunishadi. Agar sen yolg'iz va mustaqil odam bo'lsang hech nimadan qo'rqmaysan, bazida yolg'iz bo'lib bu qo'rquvdan qutilishni hoxlayman lekin keyin tushunamanki bunga tayyor emasman 13-savol: Aytchi, seningcha sening eng katta "zaifliging" nima? Va shu zaiflik hech bo‘lmaganda bir marta sening kuchli tomoninga aylanganmi? Qachon? Qanday? Javob: 14-savol: Tasavvur qil: sen uzoq yillar kutgan orzu nihoyat amalga oshmoqda — lekin sen o‘zingni kutganingdek baxtli emasligingni sezasan. Birinchi fikring nima bo‘ladi? Nima uchun shunday bo‘layapti deb o‘ylaysan? Javob:"Endi afsuslanishdan foya yo'q, men kutgan o'sha orzuyimga erishganimda baxtli bo'lmasligimni bilardim lekin baribir u uchun harakat qildim va taqdir tufayli unga erishdim" deyman o'zimga. Hamma yaxshirog'ini orzu qiladi va unga intiladi keyin esa erishadi lekin bilmaydiki bu yo'lda u o'zida bo'lgan bazi narsalarni yo'qotadi chunki u o'sha narsalarni hech qachon qadriga yetmagan. Masalan juda ko'p pulni orzu qilasan lekin unga erishish yo'lida beg'uborlikni, ta'biylikni, yumshoqlikni va baxtni yo'qotasan. Bu hayot qonuni, nimagadir erishish uchun nimadandir vos kechishing kerak. Hammasini bir maromda ushlab tura olmaysan olmaysan, doim bir qarorga kelishda ikkilansang to'xtashing kerak, agar bir qarorga kelgan bo'lsang endi afsuslanma. Bu holatda qaroring oqibatlari bilan kurashishdan boshqa ilojing qolmaydi 15-savol: Endi oxirgisi. Tasavvur qil: sen tubsiz dengiz ostida turibsan. Pastda qorong‘ulik, tepada esa yorug‘lik — juda uzoqda. Tanloving bor: tepaga intilishing, pastga chuqurlashishing yoki shunchaki bir joyda suzib qolishing mumkin. Qaysi birini tanlaysan? Nega? Javob:Imkoniyat bormi demak yuqoriga intilish kerak, agar sen tobora tubsizlikka tushib borsang bu halokat degani, agar hech nima qilmay o'rtada qolsang hech qanday natijasiz yutqazasan agar ruching boricha yuqoriga intilsang tirik qolishing mumkin. Natijasi nima bo'lishidan qat'iy nazar bir martta harakat qilib ko'rish zarar qilmaydi, bu holatta senda yutish imkoni bo'ladi lekin qolgan ikkisi uchun bu imkonsiz. Fikrimning bori mana shundan iborat

4. Kelajak Avlodga Murojaat

Men yozib qoldirgan fikrlarim, tushunchalarim va shaxsiyatimni kelajak avlod ko'rishini istayman. Bu yozuvlar mening hayotimdan, iztiroblarimdan va izlanishlarimdan qoladigan izdir. Agar ularni o'qigan kishi ulardan foyda olsa yoki o'z yo'lini topishda ilhom olsa, demak mening mehnatim zoye ketmagan bo'ladi.